INNOVATIVE  
WORLD

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV VA YER FONDI VA ULARDAN  
FOYDALANISH****Bobojonov Nurimon Shaxriyor-o'g'li**

"TIQXMMI" MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti, labasi  
[nurimonbobojonov@gmail.com](mailto:nurimonbobojonov@gmail.com)

**Annotatsiya:** Suv va yer resurslari – jahon suv va yer fondining iqtisodiy foydalanishga yaroqli qismidir. Suv va yer, hudud inson hayotining asosi, poydevori, uning yashash maydonidir, o'z faoliyatini amalga oshiradi.

**Kalit so'zlar:** Fond, tuproq bonitirovkasi, o'rmon xo'jaligi, suv xo'jaligi, kon, zahira, chuchuk suv.

**Abstract:** Water and land resources are an economically usable part of the global water and land fund. Water and land, the territory is the basis and foundation of human life, its living space, it performs its activities.

**Key words:** Fund, soil monitoring, forestry, water management, mine, reserve, fresh water.

**Аннотация:** Водные и земельные ресурсы являются экономически полезной частью мирового водно-земельного фонда. Вода и земля, территория – это основа и фундамент жизни человека, его жизненное пространство, он осуществляет свою деятельность.

**Ключевые слова:** Фонд, мониторинг почв, лесное хозяйство, водное хозяйство, шахта, заповедник, пресная вода.

**Kirish.** Insoniyat jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida suv va yer yuzi mavjud edi, eng muhimi u almashtirib bo'lmaydigan ishlab chiqarish vositasidir. Suv va yersiz odamlar o'rtasida o'zaro munosabat bo'lishi mumkin emas. Qadim zamonlardan beri mamlakatlar o'rtasidagi urushlarning asosiy maqsadi zo'ravonlik bilan begonalarning tabiiy boyliklarini tortib olish xalqlarni o'z yerlaridan chiqarib yuborish bo'lgan.

**Asosiy qism.** Suv resurslari – jahon suv fondining iqtisodiy foydalanishga yaroqli qismidir. U qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, o'rmon xo'jaligi, shuningdek, shaharsozlik va qishloq aholisining joylanishi, sanoat korxonalarining joylashuvi, transport kommunikatsiyalari va boshqa barcha turdagi inson xo'jalik faoliyati uchun zamin yaratadi. Eng katta maydonlarni qishloq xo'jaligi yerlari (35% dan ortiq), o'rmon va butalar (30%) egallaydi. Suv fondining juda ko'p qismini xo'jalikning tarmoqlari va sanoat egallagan. Qishloq xo'jalik yerlari o'zining tabiiy xususiyatlari va qishloq xo'jaligida foydalanish maqsadi bilan farq qiladi. Qishloq xo'jaligining asosiy toifalariga haydaladigan yerlar (tizimli haydaladigan va turli qishloq xo'jalik ekinlarini ekish uchun foydalaniladigan yerlar), ko'p yillik ekinzorlar (bog'lar), pichanzorlar va yaylovlar (o'tloqlar va xo'jalik hayvonlari uchun pichan yig'iladigan yaylovlar) kiradi. Yer va suv resurslari O'zbekistonning eng cheklangan resurslaridan biridir. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi uchun o'zlashtirish mumkin bo'lgan yerlar ko'p emas.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yer va suv miqdori yillar davomida kamayib bormoqda. Bu esa qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlanishiga to'siq bo'ladi. O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga ham bog'liqdir. Mamlakatimizda suv va yerdan foydalanish va boshqarish sohasidagi qonunchilik va huquqiy asoslari mustahkamlanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir" deb belgilab qo'yilgan.

Davlat hokimiyati suv va yerni boshqarish, suv va yer resurslarini muhofaza qilish hamda suv va yerlarni noqonuniy tortib olish va noto'g'ri ishlatishni to'xtatish choralarini ko'radi. Jismoniy va yuridik shaxslar suv va yerdan belgilangan maqsadlarga muvofiq foydalanishlari lozim.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi sug'oriladigan yerlari 2021 - yil yanvar holatiga ko'ra, 3259,9 ming gektarni tashkil qiladi. Yoki jami yerlarning 7,3 foizini tashkil qiladi. O'zbekistonda jon boshiga atigi 0,09 gektar ekin maydon to'g'ri keladi, shuning uchun mamlakatda qishloq xo'jaligini tobora intensiv rivojlantirishga harakat qilinmoqda. 2021 - yilning 1 - yanvar holatiga ko'ra Respublikamizning umumiy yer maydoni 44892,4 ming gektarni tashkil etgan. Shu maydon foydalanuvchilar bo'yicha quyidagicha taqsimlangan.

Qishloq xo'jaligi korxonalari, tashkilotlari va muassasalari foydalanishida bo'lgan yerlar maydoni 1990 - yilga nisbatan 2020 - yilga kelib, 12406,2 ming gektarga kamaygan. Bu o'zgarish Respublika hududida yaylov yerlarining o'rmon yer toifalariga o'tishi munosabati hamda boshqa toifadagi yerlar maydonining oshishi hisobiga ro'y bergan. Umuman olganda, yer fondi umumiy maydonining 692,6 ming gektarga kamayishi faqat uzoq muddatga foydalanishga olingan yaylov yerlarni chegaradosh davlatlarga qaytarib berilganligi hisobiga kelib chiqqan.

Respublikada jami yer fondining 46,25 foizidan qishloq xo'jalik korxonalari va tashkilotlari, 26,78 foizidan esa o'rmon xo'jaligi korxonalari foydalanmoqdalar. Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar 1990 - yilda 1821,2 gektardan 867,4 gektarga kamaygan. Lekin tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar 13,9 gektardan 710,4 ming gektarga ko'paygan. Chunki, kelajakda ham aholi o'sishi natijasida ularning yaxshi yashashi va tabiatni muhofaza etish uchun qo'shimcha yer maydonlari ajratilaveradi. 1990 - yilda Respublika yer fondining 7258,6 gektar maydoni zaxira yerlar bo'lgan bo'lsa 2019 - yilda bu ko'rsatkich 9437,7 gektarga yetgan. Bu yerlar jami yer fondining 24,7 foizini tashkil etadi. Toshkent viloyati bo'yicha yer fondi yerlarini tahlil qiladigan bo'lsak quyidagi diagrammadan ko'rinib turibdiki, eng ko'p ulush boshqa tarmoqlarda ishlatiladigan yerlar 36 foiz, pichanzorlar va yaylovlar 29 foizni, ekin yerlari 22 foizga, eng kam maydon bo'z yerlar va meliorativ qurilish holatidagi yerlarga to'g'ri keladi.



Respublikamizdagi suv fondiga nazar solsak 97 ta yer konida 64 million kub metr umumiy suv zaxiralari mavjud ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu suv zaxiralari asosan Toshkent, Samarqand, Surxondaryo, Namangan Andijon va Farg'ona viloyatlarida tarqalgan. Ammo Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida chuchuk suvlar deyarli mavjud emas. Buxoro va Navoiy viloyatlarida o'rtacha suv zaxiralari bor. Eng katta muammo ham mamlakatdagi suv zaxiralarining teng tarqalmaganida.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki 2025 - yilga borib yer yuzidagi davlatlarning yarmidan ko'pida suv taqchilligi yuzaga kelishi mumkin. 2050 - yilda esa bu ko'rsatkich dunyo aholisining 3/4 qismiga to'g'ri kelishi taxmin qilinmoqda.

Dunyoda bo'lgani kabi Respublikamizda ham suv resurslari cheklangan. Chuchuk suv umumiy suv resurslarining 8 foizini, ichimlik suvlarining esa 67 foizini tashkil etadi.

Mamlakatimizda aholi ichimlik suvi ta'minoti uchun 2019 - yilda 161,4 ming kub metr/sutka, ya'ni 950 ming kishiga yetarli miqdordagi chuchuk suv zaxirasi tasdiqlangan. 2020 - yilda 193 ming kub metr/sutka, ya'ni 1 mln 140 ming kishiga yetarli suv zaxiralari tasdiqlandi. Bu raqamlar shuni ko'rsatadiki yaqin o'tmishda chuchuk suv zaxiralari ko'rsatgichlari yomon emas. Lekin ayni hozirgi kundagi statistika ko'rsatgichlari yaqqol buning aksini ko'rsatmoqda desak yanglishmagan bo'lamiz.

Bugungi kunda aholi jon boshiga suvdan foydalanish me'yorlari sutkasiga 115- 240 litr bo'lib, bu dunyodagi o'rtacha ko'rsatgichdan past hisoblanadi. Misol uchun, Birlashgan Arab Amirliklarida kuniga 700 litr, Rossiyada 400 litr, AQSHda 200 litr, Germaniyada esa 130 litr suv sutkalik normani tashkil qilmoqda. Ichimlik suvi tanqisligi bo'yicha ko'rsatgichlar yaqin yillarda oshib borishi taxmin qilinayotgani hech kimga sir emas. Negaki, Yer sharining uchdan ikki qismi suvliklardan iborat. Buning 97 foizi sho'r suv, 3 foizi chuchuk suvdur. Shuning ham 2 foizi muzliklardagi suvlar hisoblanadi.

**Xulosa.** Mamlakatimizda suv va yerdan foydalanishning asosiy tamoyillariga suv va yerdan oqilona foydalanish, uni muhofaza qilish hamda ekin ekiladigan yerlarni muhofaza qilish majburiyati kiradi. Suv va yerni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish uchun mas'ul bo'lgan tashkilotlar tuproq unumdorligini yaxshilash, cho'llanish, sho'rlanish, tuproq eroziyasi va yer ifloslanishining oldini olish choralari ko'radi. Davlat suv va yerdan foydalanish ustidan qat'iy nazoratni amalga oshiradi, suv va yerdan foydalanishni rejalashtiradi va foydalanilmagan suv va yerlarni hisobga oladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 - yil 17 - iyundagi "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5742 - son farmoni.

2. Mirziyoyev SH. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz - Toshkent: O'zbekiston, 2017.

3. O'zbekiston Respublikasi Statistika Boshqarmasi.

## LINGUOCULTURAL ASPECTS OF PROVERBS AND SAYINGS

Sayfullayeva Mohinabonu Ulug'bekovna

Student of filology faculty of  
Uzbekistan state world language university

### ABSTRACT

This article offers an in-depth and classification of proverbs and sayings. It analyzes a range of linguistic and cultural elements such as syntax, semantics, pragmatic, and sociocultural factors – to showcase the diverse and complex nature of proverbs and sayings. The article explores how proverbs and sayings reflect cultural values, beliefs, tradition, and social interaction, highlighting their lasting importance in oral traditions and communication.

**Keywords:** wisdom, oral tradition, cultural dimensions, syntax, semantics, creation, linguocultural, pragmatics, sociocultural influences, social interactions, metaphorical, figurative language, linguo-culturology, linguocultureme.

### INTRODUCTION

A proverb is the beauty of language, a sharp tool of speech, and the wisdom of the people. Each nation's history, thought and spiritual state find expression in its proverbs and sayings. Every proverb reflects the identity of the people who created it, showcasing the nation's cultural heritage. Proverbs and sayings promote ideals such as love for one's homeland, the importance of hard work, and other human virtues. Just about everyone heard at least one proverb, sayings and most people heard more. Proverbs offer a concise record of folk wisdom and have appeared in oral tradition, literature, art, and popular culture for centuries. In translation, understanding proverbs and sayings correctly and conveying them artistically holds a special place. To preserve their meaning, the translator needs keen insight and considerable skill. Failing to translate proverbs and sayings effectively can compromise the literary works impact.

Example 1: "Don't count your chickens before they hatch"

Literal meaning: Don't assume the outcome of something before it's certain.

Cultural relevance: Reflects agricultural societies where outcomes are unpredictable

Translation challenge: In French, the equivalent proverb is "Il ne faut pas vendre la peau de l'ours avant de l'avoir tué" ("Don't sell the bear's skin before you've killed it"). The imagery differs completely, with one rooted in farming and the other in hunting. A direct translation of either proverb into the other language could mislead or confuse readers.

Example 2: "The early bird catches the worm"

Literal meaning: Acting early leads to success.

Cultural relevance: Relates to the behavior of birds, but not all cultures value early action the same way.

Translation challenge: In Spanish, the equivalent is "Al que madruga, Dios lo ayuda", which means "God helps those who wake up early."

A direct translation could overlook the religious nuance in the Spanish version or fail to highlight the importance of punctuality in a way that aligns with the target culture.

Example 3: "Out of the frying pan, into the fire"

Literal meaning: Moving from a bad situation to an even worse one.

Cultural relevance : Relates to cooking, a universal activity, but the specific imagery might not resonate in all cultures.

Translation challenge: In German, a similar proverb is "Vom Regen in die Traufe", meaning "From the rain to the eaves." A literal translation into another language might miss the metaphor or cultural essence, making it essential to find a proverb with a similar meaning.

Many proverbs use specific cultural symbols , objects, or animal that hold meaning that resonate deeply within a particular society. These elements are chosen because they carry specific connotations or associations unique to that culture.

1. Cats: In English-speaking cultures, the proverb "curiosity killed the cat" suggests that excessive curiosity can lead to trouble. However, in some Japanese folklore, a cat (especially the "Maneki Neko," or beckoning cat) is a symbol of good luck and fortune.

2. Elephants: In Thai culture, elephants represent strength, loyalty, and wisdom, and a proverb like "white elephant" means something valuable yet burdensome. In English, "elephant in the room" refers to an obvious problem that people avoid discussing.

3. Dogs: In Western cultures, a dog is often a symbol of loyalty, leading to proverbs like "a dog is a man's best friend." In contrast, in Arabic culture, the phrase "the barking of a dog doesn't reach the sky" implies that insignificant things can't affect greater truths, showing a different symbolic view.

4. Crows: In many Western proverbs, a crow often symbolizes bad omens or death, as in "a murder of crows." However, in some Native American traditions, crows are seen as clever and resourceful animals, respected for their adaptability and intelligence.

"The Wisdom of the Native Americans" is a great source for understanding the values and worldview of Native American traditions, including how animals like crows, wolves, and eagles are viewed symbolically in these cultures. Native American proverbs often highlight the intelligence, adaptability, and sacredness of animals, contrasting with how they might be viewed in other cultures.

The structure and syntax of proverbs are often concise, using rhythm, rhyme, or alliteration to make them memorable. This linguistic style can vary across languages, affecting how these sayings are perceived or used in communication.

For example: In English, proverbs like "A stitch in time saves nine" and "Actions speak louder than words" use rhyme and brevity to leave a lasting impression. Spanish ones like "Más vale tarde que nunca" (Better late than never) highlight local expressions and idiomatic structures. These linguistic elements can make proverbs unique to each culture, shaping how they resonate or are applied in conversation. Another example can be found in French and Russian. In French, the proverb "Petit à petit, l'oiseau fait son nid" (Little by little, the bird builds its nest) uses rhyme and repetition to emphasize patience and persistence. Meanwhile, in Russian, "Без труда не вытащишь и рыбку из пруда" (Without effort, you can't even pull a fish out of a pond) uses rhythm and imagery to underscore the value of hard work. These linguistic features in each language give the proverbs their own cultural flair, affecting how they are remembered and understood.

**CONCLUSION:** In conclusion, proverbs and sayings provide valuable insights into the cultural and linguistic characteristics of different societies. They reflect the values, beliefs, and traditions of a community through vivid imagery, metaphors, and moral lessons. These expressions, often tied to nature, social norms, or historical events, reveal how people in different cultures perceive the world. Proverbs not only serve as communication tools but also preserve cultural identities. By examining the linguocultural aspects of proverbs, we gain a deeper understanding of diverse human experiences, fostering a greater appreciation for cultural differences and improving cross-cultural interactions.

#### REFERENCES :

1. "Proverbs: A Handbook" by Wolfgang Mieder
2. "The Wisdom of the Native Americans" edited by Kent Nerburn (for Native American proverbs)
3. <https://jdpu.uz/maqol-va-matallarning-leksik-hamda-grammatik-xususiylarini-ingliz-va-ozbek-tillarda-qiyosiy-organishning-ahamiyati/>
4. <https://ares.uz/storage/app/uploads/public/661/51a/3aa/66151a3aa3bfd274440969.pdf>

## Iqtisodiyot va jamiyatda ilmiy-texnik taraqqiyot rivojlanish dastagi sifatida. Qurilishning ilmiy-texnik taraqqiyotga va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri

Rasulova Sharifa Gaybullaevna

JizPI., Iqtisodiyot va menejment kafedrası dotsenti

Rashidov Shoxjaxon Yashnarxonovich

JizPI., Qurilish muhandisligi fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ilmiy-texnik taraqqiyotning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda olib keladigan yangiliklari va o'zgarishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada qurilishning yangi texnologiyalar va innovatsiyalar orqali jamiyatdagi turli sohalarga ta'siri, mehnat bozori, infratuzilma va atrof-muhitga bo'lgan ijobiy va salbiy ta'sirlari haqida ham so'z yuritiladi.

**Annotation:** This article analyzes the innovations and changes brought by scientific and technical development in the economic and social spheres. The article also talks about the impact of construction on various sectors of society through new technologies and innovations, the positive and negative effects on the labor market, infrastructure, and the environment.

**Kalit so'zlar:** Ilmiy texnik taraqqiyot, iqtisodiy rivojlanish, qurilish texnologiyalari, yangi texnologiyalar, mehnat bozori.

**Keywords:** Scientific and technical development, economic development, construction technologies, new technologies, labor market.

Ilmiy-texnik taraqqiyot (ITT) bugungi jamiyat va iqtisodiyotning rivojlanishida muhim o'rin tutadi. U nafaqat texnologik yutuqlarni ta'minlash, balki insoniyatning turmush tarzini, iqtisodiy tizimlarni va ijtimoiy tuzilishni sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Qurilish sohasida ilmiy-texnik taraqqiyotning roli alohida ahamiyatga ega, chunki qurilish texnologiyalari va innovatsiyalarini joriy etish jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini oshirishga, shuningdek, jamiyatning yangi ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Ushbu maqolada ilmiy-texnik taraqqiyotning qurilish sohasiga ta'siri va uning jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qanday yordam berishini tahlil qilamiz.

Ilmiy-texnik taraqqiyot — bu fan va texnologiyalarning o'sishi, yangi bilimlar va kashfiyotlarning joriy etilishi, ishlab chiqarish va xizmatlar sohasida innovatsiyalarni yaratish jarayonidir. ITT jamiyatda yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi va ularni amaliyotga tatbiq etish orqali iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarning samaradorligini oshiradi. Shuningdek, ilmiy-texnik taraqqiyotda

fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiya jarayoni katta ahamiyatga ega, chunki bu o'zgarishlar yangiliklarni keng miqyosda qabul qilish va amalga oshirishni osonlashtiradi. ITT iqtisodiyotda resurslarni tejash, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, samaradorlikni oshirish, ekologik jihatlarni hisobga olgan holda yangi texnologiyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy barqarorlikka va iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi.

Qurilish sohasida ilmiy-texnik taraqqiyotning o'sishi iqtisodiy o'sishga va yangi infratuzilmalarning yaratilishiga yordam beradi. Qurilishning innovatsiyalashuvi orqali yangi qurilish materiallari va texnologiyalari joriy etilmoqda, bu esa qurilish jarayonlarini tezlashtiradi, sifatni oshiradi va xarajatlarni kamaytiradi. Misol uchun, zamonaviy qurilish materiallari, 3D bosib chiqarish texnologiyalari, yuqori samarali energiya tejavchi tizimlar qurilish sohasida yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

Qurilish materiallari-yangi materiallar, masalan, ekologik toza va energiya samarali materiallar (masalan, issiqlikni saqlovchi materiallar, yuqori sifatli betonlar) qurilishning samaradorligini oshiradi. Bular nafaqat xarajatlarni kamaytiradi, balki ekologik jihatlarni hisobga olishga yordam beradi.

Avtomatlashtirish va robototexnika-qurilish jarayonlarida avtomatlashtirish va robototexnika yordamida ishlarni tezlashtirish va samaradorlikni oshirish mumkin. Qurilish robotlari va avtomatik tizimlar binolarni qurishda ishlatilmoqda, bu esa mehnat vaqti va xarajatlarini sezilarli darajada qisqartiradi.

Eko-texnologiyalar-energiya samaradorligi va barqarorlikka katta e'tibor qaratilmoqda. Masalan, quyosh panellari, shamol energiyasi tizimlari, ekologik suvni qayta ishlash texnologiyalari yangi qurilishlarda joriy etilmoqda.

3D bosib chiqarish-qurilishda 3D bosib chiqarish texnologiyasining joriy etilishi yangi imkoniyatlarni yaratadi. Bu texnologiya arzon va tez qurilishni ta'minlaydi, shuningdek, ekologik izni kamaytirishga yordam beradi.

Qurilish sohasidagi ilmiy-texnik taraqqiyot jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Qurilish sektori ko'plab yangi ish o'rinlarini yaratadi, shuningdek, yangi infratuzilma obyektlari yaratish orqali jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondiradi.

1. Ish o'rinlari yaratish: Qurilish sektori yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Yangi texnologiyalar va qurilish usullari, xususan, yuqori texnologiyali qurilish usullari yangi mutaxassislarni, masalan, robototexnika mutaxassislarni va yuqori malakali ishchilarni talab qiladi. Bu esa mehnat bozori va iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shadi.

2. Infratuzilma rivoji: Qurilishning rivojlanishi yangi infratuzilma obyektlarining qurilishi, transport tizimlarini takomillashtirish va shaharsozlikni rivojlantirishga olib keladi. Bu jamiyatning turmush darajasini oshirishga, odamlarning yashash sharoitlarini yaxshilashga yordam beradi.

3. Barqaror rivojlanish: Qurilishda ilmiy-texnik taraqqiyot ekologik barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Yangi texnologiyalar va qurilish materiallari orqali qurilishlar yanada energiya samarali, ekologik toza bo'lmoqda. Bu esa jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi.

4. Yashash sharoitlari yaxshilanishi: Yangi qurilishlar va zamonaviy infratuzilma inshootlari aholining turmush sharoitlarini yaxshilaydi. Yangi uylar, maktablar, shifoxonalar va boshqa ijtimoiy inshootlar qurilishi odamlarning turmush sifatini oshiradi.

Ilmiy-texnik taraqqiyotning qurilish sohasiga ta'sirini joriy qilishda bir qancha muammolar mavjud. Avvalo, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish ko'p hollarda yuqori moliyaviy xarajatlarni talab qiladi. Bundan tashqari, texnologik yangiliklarni joriy etishning samarali tizimlari ham har doim mavjud bo'lmaydi. Shunga qaramay, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish jamiyatning barqaror rivojlanishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ilmiy-texnik taraqqiyot iqtisodiyot va jamiyatning rivojlanishida muhim omil bo'lib, qurilish sohasida bu jarayon o'ziga xos ahamiyatga ega. Qurilishdagi innovatsiyalar va yangi texnologiyalar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtiradi, yangi ish o'rinlarini yaratadi, yashash sharoitlarini yaxshilaydi va ekologik barqarorlikni ta'minlaydi. Shuningdek, ilmiy-texnik taraqqiyotning qurilishga ta'siri iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarda chuqur o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bu jarayonni yanada rivojlantirish uchun hukumat va tadbirkorlik sektori o'rtasida yaqin hamkorlik va samarali siyosat talab etiladi.

1. Gaybullayevna, R. S. , & Musurmangulov. (2024). THE IMPORTANCE OF TIME MANAGEMENT IN ENSURING EFFICIENCY IN CONSTRUCTION. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 3(1), 28-31.

2. Gaybullayevna, R. S. (2023). THE STATE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY: PROBLEMS AND SOLUTIONS. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(12), 38-42.

3. Sharifa, R., & Ilyos, T. (2023). PRINCIPLES OF SCIENTIFIC MANAGEMENT IN MANAGEMENT. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(16), 1097-1100.

4. Sharifa, R., & Sayyora, M. (2023). HISTORY OF EMERGENCE OF MANAGEMENT AND ITS PLACE TODAY. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(16), 1093-1096.
5. Sharifa, R. (2023). DIRECTIONS FOR INCREASING INVESTMENT ATTRACTIVENESS IN REGIONS. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(16), 1088-1092.
6. Sharifa, R., & Nozima, T. (2023). QUALITY MANAGEMENT IN COMPETITIVE CONDITIONS IS THE MAIN FACTOR OF ENTERPRISE SUCCESS. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(20), 200-203.
7. Sharifa, R., & Mahliyo, K. (2023). ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF ENTERPRISES AND THEIR APPEARANCES. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(5), 77-83.
8. Gaybullayevna, R. S. (2023). WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IS A FACTOR OF INCREASE IN OUR COUNTRY'S ECONOMIC WELFARE AND SOCIAL DEVELOPMENT. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(5), 73-76.
9. Gaybullayevna, R. S. (2023). MODERN FUNDAMENTALS OF FINANCIAL MANAGEMENT OF INVESTMENT ACTIVITY. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(5), 51-54.
10. Gaybullaevna, R. S. (2023). Methods for Assessing the Economic Efficiency of Investments in Construction. *European Journal of Higher Education and Academic Advancement*, 1(1), 95-98.
11. Gaybullaevna, R. S. (2023). Construction Industry in Uzbekistan Is an Important Priority Network of the National Economy. *Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress*, 2(3), 69-71.
12. Qamarov Asadbek Zafar o'g'li, & Rasulova Sharifa G'aybullayevna. (2023). BIZNESINGIZ UCHUN SAMARALI MARKETING STRATEGIYALARINI QANDAY YARATISH MUMKIN. *Scientific Impulse*, 2(14), 305-312.
13. Gaybullaevna, R. S. (2023). Economic Efficiency of Investing in Construction. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 5(3), 94-97.
14. Расулова, Ш. Ф. (2021). ЎЗБЕКИСТОНДА БАНДЛИК МУАММОСИ. ИШСИЗЛАРНИ ИЖТИМОЙ ҲИМОЯ ҚИЛИШ. *Global Science and Innovations: Central Asia (см. в книгах)*, 3(7), 22-25.
15. Расулова, Ш. Г. (2020). ПРИВЛЕЧЕНИЕ ИНВЕСТИЦИЙ. *Экономика и социум*, (2 (69)), 316-319.



16. Rasulova, S. G., & Obidova, F. Y. (2019). ISSUES OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT. *Theoretical & Applied Science*, (9), 426-429.

17. Расулова, Ш. Г. (2019). ВАЖНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕР ПО ПОВЫШЕНИЮ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (3-8), 95-100.

18. Rasulova, S., & Jabborova, Z. (2019). PRINCIPAL DIRECTIONS ON THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP. *International Finance and Accounting*, 2019(3), 18.

Расулова, Ш. Г. (2019). ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА ГОСУДАРСТВА И ПОВЫШЕНИЕ ЕЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ, НАПРАВЛЕННЫЕ НА ПОВЫШЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (3-8), 90-95.



INNOVATIVE  
WORLD

## Iqbol Mirzo she'riyatida xalq maqollarining strukrut-semantik xususiyatlari

Ruziyeva Barno Qahramonjon qizi

Andijon davlat universiteti

Filologiya fakulteti Lingvistika yo'nalishi

2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maqollarning shakllanish tarixi, mohiyati va xususiyatlari va ularning nazmda qo'llanilishi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, maqollarning xalqimiz madaniyatida tutgan o'rni, uning iqtidorli ijodkor Iqbol Mirzo she'rlarida mohirona ifodalanishi xususida keng ko'lamli semantic-struktur tahlili yoritilib berilgan.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается история формирования пословиц, их сущность и характеристики, а также их использование в поэзии. Кроме того, освещен масштабный семантико-структурный анализ роли пословиц в культуре нашего народа и их умелое выражение в стихах талантливого поэта Икбала Мирзы.

**Abstract:** This article discusses the history of the formation, essence and characteristics of proverbs, and their use in poetry. It also provides a comprehensive semantic-structural analysis of the role of proverbs in the culture of our people and their skillful use in the poems of the talented poet Iqbal Mirzo.

**Kalit so'zlar:** xalq maqollari, maqollar semantikasi va strukturasi, Iqbol Mirzo she'riyatida maqollar, "Hikmatnoma", "Saylanma", nazmda maqol.

Qadimdan shakllanib, sayqal topib kelayotgan maqol, matallar xalq turmush tarzining bir bo'lagi sifatida o'rganilib, u bilan bog'liq holda tahlil etilib kelinadi. Bular tilshunoslikning katta bir bo'limlaridan biri bo'lgan Paremiologiyada o'rganiladi va uning asosiy bo'laklaridan biri hisoblanadi. Maqollar – bu xalqning donoligini, millatning ruhini, uning madaniyatini ko'rsatadigan xalq og'zaki ijodi na'munasi bo'lib, maqollarni, xususan, xalq ijodiyotini o'rganish, tadqiq qilish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega masalalardan biri hisoblanadi. Ular nafaqat tilshunoslar, balki boshqa turli soha vakillarini ham e'tiborini jalb etgan tushunchadir.

Maqollar – bu xalq tajribasi, uning nafasi, yig'isi, shodligi va sevinchi, qayg'usi va ovunchi, bu xalq haqiqati, uni to'g'ri yo'lga eltuvchi mayoqdir. Xalq asrlar mobaynida to'plagan hayotiy tajribasini turli vositalar yordamida kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Maqollar ana shunday bebaho meros namunasi hisoblanadi. Ular zamonlarosha xalq donishmandligining muhim manbai sifatida, og'izdan – og'izga o'tib, sayqallanib kelgan. Maqollar xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari singari har bir xalqning milliy adabiy va madaniy boyligi hisoblanadi. Ular xalqning milliy – madaniy xususiyatlari va uning qirralarini, dunyoqarashi, axloqiy me'yor va prinsiplarini, millatning ruhiy holatini to'liq ifodalaydi. O'zbek maqollarining o'rganilish tarixi: o'zbek xalq durdonalarini, o'zbek xalq ijodining ommaviy janrlaridan biri bo'lgan

maqollarni to'plash va o'rganish tarixi ham, ulardan yozuvchi va olimlarning o'z asarlarida foydalanishi ham uzoq davrlarga borib taqaladi. S.I.Ozhegov "Rus tili lug'ati"da maqolga quyidagi ta'rifni beradi: "Maqol- bu tarbiyaviy ma'noga ega qisqa xalq matallari. Ular –jumladan farqli o'laroq to'liq gapni tashkil etmasdan, asosan ko'chma ma'noli ifodadir". Volfang Miederning so'zlariga ko'ra : "Maqollar uzoq vaqt davomida xalq og'zaki san'atining bir qismi bo'lib, koinotni idrok etishimizga qarilkgacha umumiy falsafiy qo'llanma sifatida foydalangan avlodlar uchun asos bo'lib hizmat qiladi. Milliy idrok va tafakkur ochib beruvchi dunyo...Bundan tashqari xalq maqollarida madaniyatning o'zagi bo'lgan milliy qadriyatlar yorqin ifodalangan".

"Maqollardagi fikrning she'riy ifodasi voqelikning ongsiz-badiiy shaklidir. Maqoldan farqli o'laroq, matal – nutqda emotsional baho uchun mavjud bo'lgan va bir qator o'xshash hayotiy hodisalarga nisbatan muqobillik tamoyiliga ko'ra qo'llaniluvchi umumqabul qilingan obrazli ifodadir. Agar maqol nutqni alohida mazmun, yangi bir butun xulosa bilan mustahkamlanayotgan bo'lsa, matal bir tugal fikr (jumla), xulosa ich iga to'laqonli bir bo'lak sifatida kiritiladi"<sup>1</sup>. XX asrning oxirgi 30-yilida maqollarni tahlil qilishning yangi semantik-struktur yondashuvi baydo bo'ldi. Bu matn lingvistikasi va paremiologiya kabi fan sohalarining taraqqiyoti bilan bog'liq. Ilmiy paremiologiyaning asoschilaridan biri G. L. Permyakov hisoblanadi. Uning fikricha, "tugallanmagan fikr"ni ifodalovchi majoziy so'z oborotlariga matallar, "tugallangan fikr"ni shakllantiruvchi majoziy ma'noli gaplarga maqollar deyiladi.<sup>2</sup> O'zbek xalq maqollarining ilk yirik lug'ati Sh.Shomaqsudov va Sh.Shoahmedovlar tomonida tuzilgan "Hikmatnoma" asari sanaladi. Unda maqollar o'quvchiga yaxshi tushunarli qilib izohlanib tartiblangan. Har bir xalq asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to'playdi, shu tajribani turli vositalar bilan kelajak avlodga meros qilib qoldiradi. Maqol va hikmatli so'zlar ana shunday bebaho ma'naviy merosimiz hisoblanadi.<sup>3</sup>

Maqollarni lingvistik nuqtayi nazardan o'rganish natijasida quyidagi xulosani aytishimiz mumkin: maqollar grammatik nuqtayi nazardan muayyan sintaktik birlik hisoblangan gaplardir. Shu bois maqolning sintaktik birlik sifatida shakli tuzilishi grammatikada o'rganiladi va tahlil qilinadi.

O'zbek xalqining iste'dodli shoir va yozuvchilaridan biri Iqbol Mirzo xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyatining mukammallik kasb etishida o'z davrini tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning g'ururi, shon-u sharafini tarannum etayotgan o'lmas so'z san'atkoridir. Uning ijodi she'riyat olamida o'ziga xosligi va fikrlar ko'lamining zalvorliligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. U hayot tomirlaridagi ichki harakatni, davr yuragidagi murakkab ritmni chuqur his eta oladigan, o'zigina his qilib qolmasdan o'quvchiga ham bu tuyg'uni yuqtira oladigan shoir hisoblanadi.

<sup>1</sup> Аникин В. Круглов.А, Русское народное поэтическое творчество.-Л.:1983, -С.129.

<sup>2</sup> Пермяков Г.Л. От поговорки до сказки (Заметки по общей теории клише) –М.: 1970, -С.7.

<sup>3</sup>Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Хикматнома. -Тошкент, 1990

Shuningdek, u yaratgan adabiy meros o‘zining ko‘pqirraliligi, ya‘ni turli masalalardan bahs yuritganligi va kishi ruhiyatining eng murakkab qirralarini ham ochib bera olganligi bilan o‘zbek she‘riyatida alohida o‘rin tutadi. Iqbol Mirzo she‘riyatida qo‘llangan har bir so‘z, tushuncha va badiiy timsollar maxsus o‘rganishga arzigulik alohida bir olam deb qaraladi. Xususan, undagi maqol va hikmatli so‘zlarning qo‘llanganligi o‘quvchini yanada fikrlashga undaydi. Shoir ijodi serqirra g‘oyalarga boy. Shoirning lirik va epik she‘rlari bir ummon. Ularning asos mohiyati ishq muhabbatdan iborat va biz ularning ayrim namunalari bilan tanishdik. Uning she‘rlari ko‘pincha aqliy muhokamalar bilan qorishib ketgan. Bu esa jiddiylik hamda donishmandlik samarasi va alomati. Zamon bilan hamnafas shoir she‘rlari mazmundor va bugungi hayot ohangini aks ettirayotgan go‘zal asarlardir. Baxshiyona ohangdagi she‘rlari xalqona va o‘ynoqi xususiyati bilan alohida ajralib turadi. Bu xalqona va o‘ynoqilik zamirida juda katta falsafiy donishmandlik va ijodiy tajriba yotadi. Xususan, undagi kognitivlik asosida yashiringan xalq maqollari bir o‘qilishda anglashilmasada chuqur o‘rganilish va tahlil etilish natijasida tub mohiyatida aynan ana shunday ibratli frazeologik birliklarni ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, quyidagi “Me‘yor” she‘rini ko‘rishimiz mumkin:

*O‘choqqa mos bo‘lsin o‘tin va qalov,  
Turmushga zarurat gulxan erta-kech,  
Lekin o‘chog‘idan toshmasin olov  
Yeru ko‘kni tutun qoplmasin hech!*

*Me‘yorida shirin nozu ne‘mat ham,  
Evi bilan bo‘lsin erkalik, sho‘xlik.*

*Hech qachon haddidan oshmasin odam,  
Bugun shunga bog‘liq borlik va yo‘qlik.<sup>4</sup>*

Har bir narsaning o‘z me‘yori yaxshi ekanligi haqida aytilib “Har narsa o‘z epi bilan”, “Ortiq davlat ko‘z chiqarar”, “Besh qo‘l og‘izga sig‘mas” kabi maqollarni tushunishimiz mumkin. O‘z va ko‘chma manosiga egaligi jihatidan bu maqollar o‘z ma‘nosida qo‘llanilgan bo‘lib, konnotativ ma‘no ifodalovchi “ko‘z chiqarmoq” birikmasi “ortiqlik, me‘yoridan ko‘plik” semasini ifodalab kelmoqda. Tuzilishi jihatidan esa bir komponentlik maqollar sirasiga misol bo‘la oladi.

*Suydim Yurtning shamshodi-yu archasini,  
Suydim soyning sokinligu, sachrashini.  
O‘nta qizni sevgan bo‘lsam o‘rni boshqa,  
Qirqta bo‘lsa qiligi‘i hush barchasini.<sup>5</sup>*

“Qalbi butun odam” she‘rida esa yolg‘onning oqibati yaxshi emasligini va buning natijasi yomonlik bilan tugashi haqida berilib, yomonlik qilganlarga indamang Yaratgan o‘z jazosini bir kuni berishini ta‘kidlab o‘tadi, Hayotning har qanday sohasida xoh oldi –sotdi muomalalarida bulsin,xoh ishlab

<sup>4</sup> Iqbol Mirzo “Saylanma” “Sharq” nashriyoti “Me‘yor” she‘ri 27- bet

<sup>5</sup> O‘sha kitob.

chiqarish sohasida bo'lsin, xoh maishiy xizmat sohasida bo'lsin, kishilar o'rtasida o'zaro ishonch bo'lmog'ilozim. Yolg'on esa ishonchni yo'qqa chiqaradi. Shuning uchun ham Alloh yolg'onchilarni yo'ldan adashganlar qatoriga qo'shadi. " Albatta, Alloh yolg'onchi va kofir kimsalarni hidoyat qilmas" <sup>6</sup> Qur'oni karimda yolg'onchilarga qiyomat kuni alamli azoblar bo'lish uqtiriladi.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

"Nabiy sallallohu alayhi vasallam:" Munofiqning belgisi uchta: gapirsa, yolg'on gapiradi, va'da bersa, ustidan chikmaydi va omonat unga ishonilsa, xiyonat qiladi", dedilar". Islom yolg'on guvohlik berishni dunyodagi eng katta gunoh – Allohga shirk keltirish bilan tenglashtirgan.

*Qalbimizda panohimiz tinglar ekan,  
Yolg'on ohlar ursak chindan ingrar ekan,  
Hammaga ham nasib etmas habib tushmak,  
Hatto ajal ham odamni tanlar ekan.*

Bu o'rinda xalqimizning "Yolg'on gap yoqadan chiqar", "Yolg'on gapning chuvi chiqar" kabi maqollarini eslashimiz mumkin. Bu maqollar ko'chma ma'noda qo'llanilgan bo'lib, "yoqa" leksemasi bevosita yolg'on gapning qay holatda yuzaga kelishini ifodalab kelingan va bu bir komponentlik maqolga misol bo'la oladi. Keyingi misralarida buni yanada ekspressiv jihatdan kuchaytirgan holda boshqa xalq maqollaridan ham foydalangan:

*Qalbi butun odam bir kun anglar ekan,  
Fazo to'la ohang ekan, ranglar ekan.  
Ey yor, nazar tashlab turgin yuragimga-  
Qaramasang, toshoyna ham zanglar ekan.<sup>7</sup>*

Ya'ni, har bir narsa qarov va mehnat bilan unadi va hosil beradi, aksincha e'tiborsizlik va qarovsizlik natijasida qimmatbaho toshdan qilingan oyna ham zanglashi mumkin ekan deya quyidagi maqolni anglashimiz mumkin: **"Bo'lsa hamki qo'riq yer, Hosil berar, to'ksang ter"**. Har qanday jamiyatda yoshlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga harakat qilinadi. Chunki mehnat qilmaydigan odam boshqalar hisobiga kun kechiradi, u oila, jamoa va jamiyat taraqqiyotiga halaqit beradi.

Umuman olganda, shoir ijodidagi umumbashariy mavzular, insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan mavzular barchaning ko'nglidan joy olib ulgurgan. Taniqli adabiyotshunos, filologiya fanlari nomzodi Rahmon Qo'chqor shoir ijodiga qarata: U "Vatan" so'zini ishlatmay, bu mo'tabar makon haqida yozishni, "Xudo" kalimasini tilga olmay, iymon haqida so'zlashi, "Ozodlik" haqida hayqirmay, uning naqadar buyuk ne'mat ekanligini muxlisga anglatishi mumkin", deya shoirning badiiy mahorati yuksak darajada ekanligini ko'rsatadi. Haqiqatan ham, shoirning so'z ishlatish mahorati, qalblarga ta'sir qila olishini baralla aytish mumkin. Yana ko'p yillar davomida shoir abadiy mavzularni qalamga olib xalqimiz qalbidan

<sup>6</sup> Qu'roni Karim ( Zumar surasi, 3- oyat).

<sup>7</sup> Iqbol Mirzo "Saylanma" "Sharq" nashriyoti 39-bet

chuqur joy olishiga, u yaratgan har bir satrlar qo'shiq bo'lib jaranglashiga ishonamiz.

Xulosa qilib aytganda, Iqbol Mirzo she'riyatida qo'llanilgan har bir obraz, o'xshatish va mubolag'alar o'zining ta'sirchanligi bilan kitobxonlarga estetik zavq bag'ishlaydi, ularning maqollar bilan keltirilishi o'quvchiga o'zgacha ta'sir etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Iqbol Mirzo "Saylanma" "Sharq" nashriyoti.
2. Аникин В. Круглов.А, Русское народное поэтическое творчество.-Л.:1983, -С.129.
3. Пермяков Г.Л. От поговорки до сказки (Заметки по общей теории клише) –М.: 1970, -С.7.
4. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. -Тошкент, 1990 .
5. Iqbol Mirzo "Qo'shiqlarim"
6. Iqbol Mirzo "Ko'nglingda nima bor bilmayman " "Sharq" nashriyot-matbaa uyi 2020-yil .
7. Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. Toshkent, 2007.

INNOVATIVE  
WORLD

**Qurilishni boshqarish zamonaviy tizimi va organlari****Rasulova Sharifa Gaybullaevna**

JizPI., Iqtisodiyot va menejment kafedrasasi dotsenti

**Jumanazarova Zilola Kamiljon qizi**

JizPI., Qurilish muhandisligi fakulteti talabasi

**Anotatsiya:** Qurilish sohasining tez rivojlanishi, yangi texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv usullarining joriy etilishi qurilishni boshqarish tizimining yanada samarali ishlashini ta'minlamoqda. Ushbu maqolada qurilishni boshqarish tizimi va uning asosiy organlari tahlil qilinadi. Maqola qurilish jarayonlarining rejalashtirilishi, tashkil etilishi va amalga oshirilishini boshqaruvchi muhim organlarni o'rganadi.

**Kalit so'zlar:** Qurilish boshqaruvi, zamonaviy tizimlar, qurilishning samarali boshqaruvi, loyiha boshqaruvi, qurilish qonuniyati.

Qurilish sohasida boshqaruvning samaradorligi nafaqat qurilish jarayonining muvaffaqiyatli yakunlanishiga, balki iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda qurilish sohasidagi boshqaruv tizimi va uning organlari zamonaviy talablarga moslashgan holda yangi metodologiyalar va texnologiyalar bilan boyitilmoqda. Ushbu maqolada qurilishni boshqarish tizimi, uning organlari, shuningdek, zamonaviy boshqaruv usullari va texnologiyalarining roli ko'rib chiqamiz. Maqsad – qurilishni boshqarish tizimining samaradorligini oshirish va uning ta'sirini yanada chuqurroq tahlil qilishdir.

Qurilishni boshqarish tizimi – bu qurilish jarayonlarini rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishni ta'minlovchi muhim mexanizmdir. Qurilishni boshqarishning asosiy maqsadi – qurilish jarayonini maksimal samaradorlikda amalga oshirish, xavfsizlikni ta'minlash va sifatli natijalarni erishishdir. Boshqaruv tizimi odatda quyidagi asosiy elementlardan tashkil topadi:

**Rejalashtirish:** Qurilishning boshlanishidan oldin barcha zarur tadbirlar, vaqtni ajratish, resurslarni taqsimlash va byudjetni belgilash.

**Nazorat:** Qurilish jarayonidagi barcha bosqichlarda sifat, xavfsizlik va qonunlarga rioya qilishni ta'minlash.

**Tashkil etish:** Qurilish ishlarining amalga oshirilishini, shuningdek, mutaxassislarni, texnologiyalarni va resurslarni boshqarishni tashkil etish.

Qurilishni boshqarish jarayonida bir nechta organlar ishtirok etadi. Ularning har biri muayyan vazifalarni bajaradi, va ular o'rtasida muvofiqlik ta'minlanishi zarur.

**Davlat organlari:** Qurilishning rejalashtirilishi, ruxsatnomalar va litsenziyalar berish, qurilish standartlarini belgilash va amaldagi qonunlarga rioya qilishni ta'minlash. Masalan, mahalliy hokimiyat organlari qurilish maydonlarining ajratilishi va kerakli ruxsatnomalar bilan ta'minlaydi.

Litsenziyalash va sertifikatlash organlari: Qurilish tashkilotlari va mutaxassislari uchun malaka va sertifikatlarni berish. Bu organlar qurilish jarayonida ishlovchi barcha mutaxassislarning malakasini tasdiqlaydi va ularning faoliyatini nazorat qiladi.

Qurilish kompaniyalari va muhandislik xizmatlari: Qurilish jarayonini tashkillashtiruvchi asosiy organlar sifatida kompaniyalar va muhandislik xizmatlari. Ular qurilishning har bir bosqichida o'z mutaxassisliklariga muvofiq ish olib boradilar. Bugungi kunda, zamonaviy qurilishni boshqarish tizimlarida yangi texnologiyalar va metodologiyalar keng qo'llanilmoqda. Bu texnologiyalar qurilish jarayonining samaradorligini oshirish, vaqtni tejash va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Eng keng tarqalgan texnologiyalar va usullarga quyidagilar kiradi.

BIM (Building Information Modeling): Bu texnologiya qurilish jarayonining har bir bosqichini modellashtirish imkonini beradi. BIM orqali barcha ma'lumotlar yagona platformada jamlanadi va qurilishning rejalashtirilgan samaradorligi oshadi. Bu metod orqali loyihalarning aniq va xatoliklardan holi amalga oshirilishi mumkin. Lean Construction: Bu usul qurilish jarayonlaridagi isrofnik kamaytirish va resurslarni optimal darajada ishlatish uchun ishlatiladi. Lean Construction metodologiyasi, ishlab chiqarish jarayonlarida bo'lgani kabi, qurilishda ham samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Robotizatsiya va avtomatizatsiya: Zamonaviy qurilishlarda robotlar va avtomatlashtirilgan tizimlar orqali qurilish jarayonlari tezlashadi, ishchi kuchining kamayishi va xavfsizlikning oshishi ta'minlanadi. Qurilish boshqaruvi sohasidagi innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni tatbiq etish jarayoni davom etmoqda. Kelajakda quyidagi natijalarni kutish mumkin:

Yashil qurilish va barqaror rivojlanish: Ekologik jihatdan barqaror va energiyani tejovchi qurilish texnologiyalarining qo'llanilishi yanada kengayadi. Bu jarayon qurilishning ekologik ta'sirini kamaytirishga va atrof-muhitni himoya qilishga yordam beradi.

Raqamlashtirish va IoT (Internet of Things): Qurilish jarayonlarini yanada raqamlashtirish, qurilish maydonlarida IoT qurilmalari orqali monitoring qilish va real vaqtda ma'lumotlarni yig'ish orqali boshqaruv tizimlari samaradorligi oshadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qurilishni boshqarish zamonaviy tizimi va organlari, shubhasiz, qurilish jarayonining muvaffaqiyatli yakunlanishiga, resurslardan samarali foydalanishga, va xavfsizlikni ta'minlashga katta ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv metodologiyalarining joriy etilishi qurilish sohasidagi samaradorlikni oshiradi, vaqt va xarajatlarni kamaytiradi. Qurilishni boshqarish tizimi va uning organlarining kelgusi rivojlanishi yanada ilg'or va barqaror yondashuvlarni kiritishga yordam beradi.



1. Gaybullayevna, R. S. , & Musurmangulov. (2024). THE IMPORTANCE OF TIME MANAGEMENT IN ENSURING EFFICIENCY IN CONSTRUCTION. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 3(1), 28-31.
2. Gaybullayevna, R. S. (2023). THE STATE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY: PROBLEMS AND SOLUTIONS. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(12), 38-42.
3. Sharifa, R., & Ilyos, T. (2023). PRINCIPLES OF SCIENTIFIC MANAGEMENT IN MANAGEMENT. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(16), 1097-1100.
4. Sharifa, R., & Sayyora, M. (2023). HISTORY OF EMERGENCE OF MANAGEMENT AND ITS PLACE TODAY. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(16), 1093-1096.
5. Sharifa, R. (2023). DIRECTIONS FOR INCREASING INVESTMENT ATTRACTIVENESS IN REGIONS. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(16), 1088-1092.
6. Sharifa, R., & Nozima, T. (2023). QUALITY MANAGEMENT IN COMPETITIVE CONDITIONS IS THE MAIN FACTOR OF ENTERPRISE SUCCESS. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(20), 200-203.
7. Sharifa, R., & Mahliyo, K. (2023). ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF ENTERPRISES AND THEIR APPEARANCES. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(5), 77-83.
8. Gaybullayevna, R. S. (2023). WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IS A FACTOR OF INCREASE IN OUR COUNTRY'S ECONOMIC WELFARE AND SOCIAL DEVELOPMENT. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(5), 73-76.
9. Gaybullayevna, R. S. (2023). MODERN FUNDAMENTALS OF FINANCIAL MANAGEMENT OF INVESTMENT ACTIVITY. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(5), 51-54.
